
MEHR VA E'TIBORDAN MUNAVVAR DILLAR



Muborak ramazon oyi munosabati bilan Qo'shtepa tumanida ham ehtiyojmand, kam ta'minlangan oilalar, nogironlar va qiyin sharoitda yashayotgan aholi vakillariga ko'maklashish, ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda.

Tumandagi sektor rahbarlari "Balandmasjid" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Akbarovlar xonadonida bo'lib, ularning vasiyligi asosida tarbiyalanayotgan boquvchilarini yo'qotgan uch nafar voyaga yetmagan bolalar xolidan xabar olishdi.

Tuman hokimi I.Novikov va sektor rahbarlari oila a'zolari bilan suhbatlashdilar. Ularga oziq-ovqat mahsulotlari va ramazon shirinliklari tuhfa etildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-04-18 09:42:57